



## ERGASH JUMANBULBUL REPERTUARIDAGI DOSTONLARDA POETIK TIMSOLLAR

Elbek JUMANOV,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
[elnazar2186@rambler.ru](mailto:elnazar2186@rambler.ru)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17381466>

**Annotatsiya.** Maqolada Ergash Jumanbulbul o‘g‘li repertuaridagi “Kuntug‘mish” dostonidagi motiv va obrazlarning poetik ramzlari tahlil qilingan. Xususan, asarda tasvirlangan Kuntug‘mish, Xolbeka, Buvraxon, Zamongul, Azbarxo‘ja kabi personajlarning doston kompozitsiyasidagi o‘rni, g‘oyibona oshiqlik, ajdar bilan jang, baxt qushining uchirilishi kabi motivlarning genezisi va badiiyatiga borasida fikr yuritilgan. Har bir personaj va epizod inson ruhiyatidagi evrilishlarning badiiy ifodasi ekani asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** Ergash Jumanbulbul, Kuntug‘mish, Xolbeka, Buvraxon, Arzbarxo‘ja, poetik ramz, obraz, g‘oyibona oshiqlik, ajdar, baxt qushi.

**Abstract.** The article analyzes the poetic symbols of motifs and images in the Ergash Jumanbulbul version of the "Kuntugmish" epic. In particular, the role of such characters as Kuntugmish, Kholbeka, Buvrakhan, Zamongul, Azbarkhoja in the composition of the epic, as well as the genesis and artistry of motifs such as love in absentia, battle with the dragon, and the release of the bird of happiness are discussed. It is based on the fact that each character and episode is an artistic expression of the evolution of the human psyche.

**Keywords:** Ergash Jumanbulbul, Kuntugmish, Kholbeka, Buvrakhan, Arzbarkhoja, poetic symbol, image, absent love, dragon, bird of happiness.

**Аннотация.** В статье анализируется поэтическая символика мотивов и образов в версии Эргаша Джуманбулбула эпоса «Кунтугмиш». В частности, роль таких персонажей, как Кунтугмиш, Холбека, Буврахан, Замонгул, Азбарходжа в композиции эпоса, а также генезис и художественность таких мотивов, как заочная любовь, битва с драконом, выход из птица счастья обсуждаются. Он основан на том, что каждый персонаж и эпизод являются художественным выражением эволюции человеческой психики.

**Ключевые слова:** Эргаш Джуманбулбул, Кунтугмиш, Холбека, Буврахан, Арзбарходжа, поэтический символ, образ, отсутствующая любовь, дракон, птица счастья.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li repertuaridagi “Kuntug‘mish” dostonida nomi keltirilgan har bir obraz, tasviri berilgan har bir epizod muayyan poetik timsolni ifodalaydi. Doston bosh qahramoni Kuntug‘mish – Olatog‘ etagidagi No‘g‘oy mamlakatining hukmdori Qilichxon laqabli Avliyoyi Qoraxonning yolg‘iz farzandi. Personajlardan birining nomi qorong‘i tunni, ikkinchisining ismi esa navqiron quyoshni, ya‘ni yangi kun va yangi davr ostonasi bo‘lgan lahzani ifodalaydi. Qadim mifologik tasavvurlarga ko‘ra, nur zulmat batnida ulg‘ayadi. Binobarin, asar sahnida Kuntug‘mish otlig‘ qahramonning paydo bo‘lishi qalbda nish urgan eng ezgu toza tilaklarning, yuksak orzu-niyatlarning majoziy ifodasi desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Ya‘ni, ishqtalab ko‘ngil, haq vasliga intilayotgan solik bu yo‘lda dastlabki qadamlarni tashlamoqda. U tug‘ilib o‘sgan “Olatog‘” epik makoni esa inson botinidagi nur va



zulmat, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi adabiy kurash kechadigan jang maydonining tasviridir.

Zangar mamlakatidagi Shoir vazirning qizi Xolbeka har bir inson intiladigan bir umrlik orzuning, oliy maqsad va baxtning timsolidir. Uning baland ko‘shkda yashashi, o‘ziga talabgor bo‘lganlarga og‘ir shart qo‘yib, sinovdan o‘tolmaganlarni qatl etishi fikrimizni dalillaydi. Ya‘ni chinakam baxtni his etmoqni, haq vasliga etmoqni istagan kishi o‘limdan hayiqmasligi, bu yo‘lga kafanni elkasiga ilib chiqishi ajablanarli hodisa emas. Mahbuba qo‘lida o‘lim topmoq, so‘nggi lahzada uning ruxsoridan bahra olmoq oshiq uchun fojia emas, balki ulkan saodatdir.

Umuman, folklorga epik asarlarda kuyovlikka da‘vogarlariga qiz va uning otasi tomonidan turli talablarning qo‘yilishi ko‘p uchraydi. O‘sha shartlar shaklan bir-birini takrorlamasa-da, mohiyatan umumiylikka ega. Ya‘ni, ularni bajarish deyarli imkonsiz. Xususan, “Ajdar qush” ertagida podshoning qizi “Kimki shu ajdar qushni o‘ldirsa, shu odamga tegaman”, – deb jar soldiradi. “Qilichqora” ertagida podsho qizini “yetti tanob erga sepilgan qirq tuya tariqni yana qirq tuyadagi qoplarga solib bergan” kishiga berishini aytadi. “Vazirvachcha” ertagidagi podshoning sharti yanada qiziqarli. Unga ko‘ra, malikaga uylanmoqchi bo‘lganlar “ikki o‘rani oltinga to‘lg‘izishi, o‘t yoqilgan zindonning issig‘iga chidashi” kerak bo‘ladi. “To‘rabekaxonim” ertagidagi qiz esa “Kimki g‘azal aytishib engsa, ot chopishib o‘tsa, qilich o‘ynashda ustun chiqsa, shunga xotin bo‘laman”, – deb talab qo‘yadi. E‘tiborga molik jihati shundaki, ba‘zi holatlarda shartning o‘zi “hayot uchun xavfli” bo‘lsa, ayrim vaziyatlarda shartni bajara olmaganlar qatl etiladi. Demak, ushbu motiv hayot va mamot, shon-sharaf va sharmandalik, boylik va qashshoqlik o‘rtasidagi ko‘prikni ifodalaydi.

“Sinov motivlari tadqiqida avval initsiatsiya (o‘smirning balog‘at yoshiga etib, erkaklar safiga o‘tish davrida qatnashishi shart bo‘lgan sinov marosimi), so‘ng nikoh shartlariga urg‘u beriladi. Ammo tarixan initsiatsiya nikoh marosimlarida ishtirok etish huquqini beruvchi, ya‘ni nikohdan avval o‘tkaziluvchi marosimlardan biri hisoblangan. Jamiyatda ota urug‘i etakchilik qila boshlagach, nikohga bog‘liqlik mazmuni saqlangan holda, erkaklarning asosiy marosimiga aylangan” [6.32].

Dostonda Kuntug‘mish to‘ra va Xolbeka hali bir-birlarini ko‘rmasdan ishq dardiga muhtalo bo‘lishadi. Ushbu epizod ham folklor asarlarda, xususan ertaklarda ko‘p uchraydigan motivlardan hisoblanadi. Masalan, “Hasan va Husan”, “To‘qiliboy”, “Sherzod va Gulshod”, “Burgutlar”, “Bektemir botir”, “Yigit va qiz”, “Mislabu”, “Ahmad bilan ikki xizmatkor”, “Podsho bilan boyning o‘g‘li” va “Ajdar qush” ertaklaridagi qahramonlar qizlarning ta‘rifini eshitib sevib qolishadi.

“Qironog‘a”, “Qiron botir”, “Qiron aka”, “Ikki do‘st”, “Orzijon bilan Qambarjon”, “Malikayi Birmisqol», “Ilmxon” ertaklarining qahramonlari bo‘lajak sevgilisini tushida uchratadi.



“Qorasoch pari”, “Farhod va Shirin”, “Mohistara”, “Hotam”, “Kambag‘al qiz”, “Mislabu”, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Sitoraxon”, “Malikjon”, “Hazratqul” ertaklaridagi qahramonlar surat yoki oynadagi tasvirni ko‘rib, oshiqlik dardiga chalinadi. “Vospiroxun” va “Sodiq do‘st” ertaklarida pariga ko‘zi tushgan qahramon hushidan ayriladi.

Bizningcha, bu holatlar ilohiy ishq haqidagi tushunchalarni ifodalaydi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, turk asotirlarida tangrilarni sevib qolib, oshiq bo‘lganlar haqida ham ko‘plab namunalar uchraydi. Tangrini sevib qolgan Dumuzi nomli sumer (suv-yer) baliqchi hatto tangri visoliga ham etishgan [5. 17]. Shuningdek, tangri ishqiga muhtalo va bu ishqdan mast bo‘lgan, o‘yinga tushgan, zikr qilgan shomonlar haqidagi afsonalar ham ko‘p.

To‘g‘ri, turkiy xalqlar asotirlaridagi obrazlar Yagona xudoga emas, turli tangrilarga oshiq bo‘lganlar, biroq mana shunday afsonalar mavjudligining o‘ziyoq turkiylarda islomgacha ham ilohiy ishq mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ilohiy ishq toza va samimiy bo‘lmog‘i lozim edi. Shu sababli g‘arazli ishq bilan ko‘kka chiqmoqchi bo‘lgan va halokatga uchragan Etona haqida ham afsona mavjud [9. 101-102].

“Sevgi dardi” bilan og‘rish jarayoniga diqqat qilinsa, bu holat qahramonning biror sirdan voqif bo‘lganidan so‘ng yuz berganini ilg‘ash qiyin emas. Shundan so‘ng personaj ruhiyatida sirli o‘zgarishlar kuzatila boshlaydi. Hushdan ketish, bag‘rini erga berib yotish, tunlari halovatni yo‘qotish shular jumlasidandir. Binobarin, ushbu holatni qalbga tushgan ilohiy ishq olovining birinchi uchquni, ruhiy kamolot yo‘lidagi ilk qadam, iymon nurining dastlabki shu‘lasi sifatida tushunish mumkin.

Shu o‘rinda Buvraxon obraziga ham to‘xtalib o‘tish joiz. Uning Xolbekaga talabgor bo‘lishini ishqqa bog‘lab bo‘lmaydi. Asarda ushbu personaj o‘tkinchi havasning ramzi o‘laroq namoyon bo‘ladi. Buvraxon ishq yo‘lida qurbon bo‘lishni emas, maqsadga etishning oson yo‘llarini qidiradi. Uning aybdorlarni jazo mexanizmi ham e‘tiborni tortadi: “Podsho buyurib, bir tuv biyani tulup qilib so‘yib, ikkovini zich qilib, xom teriga tiqib, darvozadan chiqarib, bir asovning dumiga taqib, bir cho‘l-jaziraga qaratib, ko‘p odam suvlab hurkitib, haydab yubordi [1. 52].

Bizningcha, ertaklardagi gunohkor deb topilgan personajlarning jazirama cho‘llarga surgun qilinishi jannatdan haydaliq haqidagi diniy rivoyatlarni yodga soladi. Cho‘ldagi kishilarning o‘tin terib tirikchilik qilishi ham do‘zax haqidagi tasavvurlar asos bo‘lishi mumkin. Xolbekaning kanizlaridan biri Zamongul esa hirs va shahvatning majoziy ifodasi bo‘lib xizmat qiladi. Kuntug‘mishning ajdar bilan jang qilib, unga mag‘lub etgan holatlari ham berilgan. Ajdar obrazining “To‘yma” laqabi bilan atalishi e‘tiborga molik.

Ajdar obrazining mifologik tabiati, kelib chiqishi va epik asarlar syujet qurilishidagi badiiy vazifalari xususida ilmiy adabiyotlarda ayrim mulohazalar bayon



qilingan [10, 11, 2]. Bizningcha, bu obrazning genezisi qadimgi o‘rta osiyoliklarning tabiat kultlariga ishonish bilan bog‘liq an‘analarga borib taqaladi.

Umuman, ajdar(ho) O‘rta Osiyo mifologiyasida yovuz kuchlarning ilonsifat ko‘rinishdagi timsoliy obrazi bo‘lib, uning faoliyati ezgulikka xizmat qiluvchi kosmik mavjudlikni vayron qilish, buzish va yo‘q qilishga qaratilgan. U doimo ezgulik kuchlariga qarshi chiqadi, ularga to‘sqinlik qilishga urinadi.

Qadimgi xitoyliklarning mifologik e‘tiqodlariga ko‘ra, ajdar obrazi suv stixiyasi sifatida ilohiylashtirilgan hamda unga daryolar, ko‘llar, quduqlar ma‘budi sifatida munosabat bildirilgan. Oilaviy-maishiy marosimlarda turli xil ramziy – ritual raqslar va aytimlar vositasida ajdardan tinchlik, baxt ato etishini so‘raganlar.

Xitoy mifologik afsonalarida tasvirlangan ajdar o‘z mohiyatiga ko‘ra, sinkretik obrazdir. Bu personaj kamida kamida to‘qqiz xil ko‘rinishni o‘zida birlashtiradi. Uning kallasi tuyaniki, bo‘yni ilonniki, tirnog‘i burgutniki, elkasidagi tig‘simon bo‘rtmalari karp baliqniki, oyoqlari yo‘lbarsniki, quloqlari sigirniki, shoxlari kiyikniki, ko‘zlari shaytonniki, qorni chig‘anoqnikiga o‘xshash holda tasvirlangan. Ajdarho g‘ayritabiiy, ya‘ni turli xil jonzotlar haqidagi xalq qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan mifologik jonzot – ezgulik timsoli sifatida tasvirlangan. Bu xayoliy-mifologik jonzotning har bir a‘zosi alohida vazifa bajaradi [7. 26]. Ammo uning tangalar bilan qoplangan, uzun tanasi ko‘proq ilonni eslatadi.

“Ajdarho Ahrimanning sifatlarini o‘ziga singdirgan obrazlardan biri – deb yozadi folklorshunos D.Fayziyeva. – Uning odamlardan bir qiz talab qilib, uni tiriklayin yutish odati qadimiylilik xarakteriga ega bo‘lib, tarixiy asoslari ibtidoiy urf-odatlar bilan bog‘lanadi. U suvning serob bo‘lishini istash yoki aksincha, suv toshqini-to‘fonini bostirish niyatida qizlarni suvga tashlab qurbonlik qilish an‘anasining badiiy ko‘chimi hisoblanadi. Demak, mazkur motiv timsoliy ma‘no kasb etib, ajdarhoning yovuz va qonxo‘r ekanligini belgilovchi badiiy ifoda sanaladi”. Demak, xalq ertaklardagi ajdarhoga qiz tortiq etish motivini ibtidoiy odamlar hayotidagi qurbonlik marosimining rudimenti sifatida baholash mumkin.

“Kuntug‘mish” dostonidagi ajdar esa inson nafsining, jismoniy mayllarining ramzi bo‘lib kelgan. Ya‘ni, o‘z nafsini engish uchun avvalo, ruhan kuchli va irodali bo‘lish lozim.

Dastavval o‘zini do‘st ko‘rsatgan xiyonatkor Azbarxo‘jani tama, hasad, araz kabi bir qarashda sezilmaydigan, ammo kishi ruhiyati va shaxsini emiradigan yashirin illatlarning ramziy ifodasidir. Kuntug‘mishning farzandlari Gurkiboyni murosasozlik, Mohibekni esa sarkashlikning ramzi sifatida olish mumkin.

Baxt qushining qalandar holidayi Kuntug‘mishning boshiga qo‘nishida ham majoziy ma‘no mujassam. Avvalo qalandarlik holi zabunlik emas, balki haq vasli xayolidan boshqa barcha narsalardan yuz o‘girish, dunyo ne‘matlaridan voz kechish va



nafs mayllarini o‘ldirish demakdir. Baxt qushi esa tavallo va duolarining qabul qilinganini bildiradi.

Qadimgi marosim shartlariga ko‘ra, yangi podsho baxt qushini uchirish yo‘li bilan aniqlanadi. Xususan, “Qora mushkul ot”, “Tuhmatga uchragan kelin”, “Baxtini topgan cho‘pon”, “Tosh tuxum”, “Hazratqul”, “Qorasochxon”, “Rustamzod va Sherzod”, “Murqumomo”, “Ahmadjon bilan Luqmonjon”, “Sunbul bilan Gul”, “Zulm va qasos”, “Oygul bilan Baxtiyor” nomli ertaklarda shu marosim tasvirini ko‘rishimiz mumkin.

Ingliz olimi Semuil Genri Xuk (Samuel Henre Hooke) qalamiga mansub “O‘rta Sharq mifologiyasi” (“Middle Eastern mythology”) nomli asarda qayd etilishicha, turli marosimlar va rituallarda ifodalangan mifologik qarashlar kult miqlarining asosini tashkil etadi [8. 7].

O‘zbek mifologiyasi talqinicha, davlat qushi humo yoki humoy bo‘lib, kimning ustiga uning soyasi tushsa, o‘sha odamga davlat ato etilar ekan. Bu haqda Rahmatulla Yusuf o‘g‘li quyidagilarni yozgan: “Gul-u bulbul” dostoniga surat chizgan tasvirchi taxminanmi yoki biror afsonaga asosanmi, bu qushni tanasi qush, boshi odam sifatli qilib tasvirlagan. Ba’zilar humoni humoy deb taxmin qilib, mabodo soyasi tushib ketsa, “Endi biz ham boy bo‘ladigan bo‘ldik”, – deb quvonib yurganlar. Ammo ba’zilar humo har podsholikda bitta bo‘ladi, uni davlat qushi deydi, podsho o‘lsa, davlat qushi uchiriladi, o‘sha qush qobiliyatli odamni topib, boshiga qo‘nadi, deydilar»[12].

V.N.Basilovning ma’lumot berishicha, afsonaviy Humoy qushi Qadimgi Eron mifologiyasida baxt va davlat timsoli sanalgan. Ushbu hududda yashagan odamlar uning soyasi ustiga tushgan kishi baxtli bo‘lishiga ishonganlar. Ayrim olimlarning fikricha, qadimgi turkiy mifologiyada harbiylar va malikalar homiysi va Ko‘ktangrining xotini timsoli sifatida tasavvur qilingan Umay obrazining genetik ildizlari ham humoy to‘g‘risidagi qarashlarga aloqador [2. 547].

Alisher Navoiy yashagan davrda ham humo qushining soyasi tushgan odamga baxt-u davlat ato etiladi degan ishonchlar mavjud bo‘lgan. Buni shoirning “Lison ut-tayr” asaridagi “humoy uzri” nomli faslda bayon etilgan fikrlar ham tasdiqlaydi [4. 142].

Umuman, asar voqealarini aks ettirgan epizodlarning har biri haqni tanish, o‘zini anglash, yaratgan visoliga etish yo‘liga chiqqan, komillik sari intilayotgan inson tiynatidagi evrilish, qarama-qarshi hislar o‘rtasida kechayotgan kurashni ifodalaydi. Inson jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, tangri oldida yuksak maqomga erishishi uchun shunday bosqichlarni bosib o‘tishi shart. “Kuntug‘mish”da bu jarayon badiiyat mezonlariga mos tarzda ifodalanadi.



**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Kuntug‘mish / Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o‘g‘li. Yozib oluvchi: Muhammad Isa Ernazar o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi: Hodi Zarifov. Izohlar bilan qayta nashrga tayyorlovchi: Ergashboy Matyoqubov. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. – 160 b.
2. Басилов В.Н. Аждарха // Мифы народов мира. В двух томах. Т. 1. – Москва: Советская энциклопедия, 1987. – С. 50-51.
3. Басилов В.Н. Умай // Мифы народов мира. В двух томах. Т. 2. – Москва: Советская энциклопедия, 1988. – С. С. 547-548.
4. Жўраев М. Нарзикулова М. Миф, Фольклор ва адабиёт. – Тошкент: ЎЗМЭ нашриёти, 2006. – 184 б.
5. Мурот Ўроз. Турк асотирлари / Туркчадан М.Аъзам таржимаси // Сирли олам. – Тошкент, 1991. № 4. – Б. 16-21.
6. Назарова Ш.И. Ўзбек халқ эртақларида синов мотивларининг генезиси ва поэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2017. – 150 б.
7. Файзиева Д.О. Ўзбек фольклорида илон образи (генезиси ва бадиияти): Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 2004. – 150 б.
8. Хук С.Г. Мифология Ближнего Востока / Перевод с английского А.С.Рапопорт. – Москва: Наука, 1991. – 184 б.
9. Эшонкулов Ж. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996. – 158 б.
10. Чеснов Я.В. Дракон: метафора внешнего мира // Мифы, культы, обряды народов зарубежной Азии / Отв. ред. Н.Л.Жуковская. – Москва: Наука, 1986. – С. 59-72.
11. Яншина Э.М. Культ драконов. Женская божества // Формирование и развитие древнекитайской мифологии. – Москва: Наука, 1984. – С. 56-87;
12. ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти Фольклор архиви. Инв № 1713/3.
13. Bakhadirova, A. J. (2019). The Creative Work and Artistic Repertoire of Professional Uzbek Narrators. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(2), 23-32.